
“XONARIQ” MAHALLASIDA SAYYOR QABUL O‘TKAZILDI

Aholi murojaatlarini tinglash, joyiga borgan holda o‘rganish hamda ularning ijobiy hal etilishini ta‘minlash maqsadida tuman hokimi, 1-sektor rahbari Abuqahhor Djurabayev “Xonariq” MFYda navbatdagi sayyor qabulni o‘tkazdi.

Sayyor qabul davomida fuqarolarning 10 dan ortiq ijtimoiy yordam, elektr ta‘minoti, gaz, ichki yo‘llar kabi masalalar bo‘yicha murojaatlari tinglandi. Murojatlarning qariyb 70 foizi joyida hal etildi. Muddat talab etiluvchi muammolarning bartaraf etilishi yuzasidan tumanning tegishli mutasaddi tashkilot va idoralariga topshiriqlar berildi. Sayyor qabulda tushgan murojaatlarning ijrosi nazoratga olindi.

Shuningdek qabulda tuman prokurori Shuhratjon Musayev hamda tuman IIB boshlig‘i Farhodjon Bektoshevlar ishtirok etib, murojaatlar yuzasidan fuqarolarga huquqiy tushunchalar berdilar.

2023-05-10 17:36:29